



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

INKLUZIV TA'LIMDA ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR UCHUN SAMARALI METODLAR

Otamurodova Farida

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti +998930760556

Annotatsiya: Mazkur maqolada inkluziv ta'lim sharoitida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishning samarali metodlari yoritilgan. Unda vizual va kommunikativ yondashuvlar, ishoraviy til va daktil nutqdan foydalanish, subtitr va multimedia vositalarini qo'llashning afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida dars samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: Inkluziv ta'lim, surdopedagogika, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, kar va zaif eshituvchi, vizual metodlar, ishoraviy til, daktil nutq, subtitr, multimedia vositalari, axborot texnologiyalari, individual yondashuv, ota-ona va o'qituvchi hamkorligi.

Аннотация: В данной статье рассмотрены эффективные методы обучения детей с нарушением слуха в условиях инклюзивного образования. Анализируются преимущества использования визуальных и коммуникативных подходов, жестового и дактильного языка, субтитров и мультимедийных средств. Кроме того, подчеркиваются возможности повышения эффективности урока с помощью информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, сурдopedagogika, дети с нарушением слуха, глухие и слабослышащие, визуальные методы, жестовый язык, дактильная речь, субтитры, мультимедийные средства, информационные технологии, индивидуальный подход, сотрудничество учителя и родителей.

Annotation: This article discusses effective methods of teaching children with hearing impairments in the context of inclusive education. It analyzes the advantages of using visual and communicative approaches, sign language and dactyl speech, subtitles, and multimedia tools. In addition, the possibilities of increasing lesson efficiency through information and communication technologies are highlighted.

Keywords: Inclusive education, surdopedagogy, children with hearing impairments, deaf and hard of hearing, visual methods, sign language, dactyl speech, subtitles, multimedia tools, information technology, individual approach, teacher-parent cooperation.

Imkoniyati cheklangan bola uchun imkoniyat yaratish — bu jamiyatning yuksalishi demakdir.

Inson jamiyatda o'zining imkoniyatlari, bilim va ko'nikmalari bilan qadrlanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularni sog'lom tengdoshlariga teng sharoitlarda ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Inkluziv ta'lim ana shu maqsadga xizmat qiladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Shunday bolalar sirasiga eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar kiradi. Ular uchun to'g'ri metodlarni tanlash, o'qitish jarayonida maxsus yondashuvni qo'llash ularning bilim olishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Surdopedagogika eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'limi, tarbiyasi va o'qitilishi masalalari bilan shug'ullanuvchi pedagogik fanlar qatoriga kiruvchi korreksiya pedagogikasining bir tarmog'idir. Surdopedagogika fan sifatida eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'lim-tarbiyasi amaliyoti bilan chambarchas holda, shuningdek, ushbu amaliyotni har tomonlama o'rganish hamda umumlashtirish asosida rivojlanadi. U nuqsonning oldini olish va kompensatsiyalash (o'rnini bosish)ning ilmiy asoslangan yo'l va vositalarini ishlab chiqish, shaxsning rivojlanish sharoitlarini asoslab berish bilan eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi amaliyotiga tubdan ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holatdan kelib chiqqan holda o'zbek surdopedagogikasi o'z oldiga quyidagi vazifalarini hal qilishni qo'ymoqda:

- eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni har tomonlama pedagogik o'rganish;
- eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi obyektiv qonuniyatlarini o'rganish;
- maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiyaning mohiyatini aniqlash;
- ilm asoslariga o'qitish tizimini nazariy asoslab berish hamda ishlab chiqish;
- eshitish idrokini rivojlantirish, ona tilini o'qitish, og'zaki nutq (talaffuz)ni shakllantirish tizimini takomillashtirish;
- maxsus ta'lim tizimi mazmuni (o'quv reja, ta'lim talab va dasturlari, darsliklar) ni ilmiy asoslangan holda takomillashtirish;
- maxsus muassasada korreksion-kompensator rivojlantiruvchi tavsifga ega o'qitish va tarbiyaning nizom, metod va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslangan holda takomillashtirish;
- o'quvchilar ta'limi, ijtimoiy foydali mehnat hamda kasb tayyorgarligi tizimini takomillashtirish;
- eshitish nuqsonini korreksiyalash (to'g'irlash) va kompensatsiyalash (o'rnini bosish) texnik vositalarini yaratish va takomillashtirish;
- maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab-internati, oila va mahallaning eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi faoliyatidagi hamkorliklarini kuchaytirish;
- maxsus pedagogik bilim va yutuqlarni targ'ibot qilish, ommalashtirish;
- eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv ta'limni joriy etish orqali ijtimoiy hayotga erta uyg'unlashtirish masalalarini hal qilish.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimida so'nggi vaqtlarda inklyuziv ta'lim g'oyasi, respublikamiz sharoitida uni joriy etish masalalari tez-tez murojaat etilayotgan mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar eshitishining jarrohlik yo'li bilan koxlear implantatsiya yordamida qayta tiklash bunday bolalarni «eshituvchilar» jamiyatiga qaytarish, ya'ni jamiyatga uyg'unlashtirishning yana bir samarali yo'li sanaladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Koxlear implantatsiya (KI) – eshitish sezgilarini tiklash maqsadida jarrohlik yo'li bilan ichki quloqda (quloqning ichki bo'limida) joylashgan eshitish nervlarining afferent tolalariga bevosita elektr qo'zg'atuvchilik vazifasini bajaruvchi elektrod tizim (sistema)larni ulash. Hozirgi kunda eshitish muammosi turli darajada bo'lgan shaxslarning eshitishini tiklashda turli-tuman OKAlaridan (qarang: eshitish apparat (uskuna)lari) foydalanilmoqda. Yuqori darajadagi sensonevral zaif eshituvchilik va karlik holatida ba'zi texnik, fiziologik, patofiziologik sabablarga ko'ra OKAlar nutqiy tovush idrokini birozgina yaxshilaydi yoki umuman idrok etish imkonini bermaydi.

Surdoaudiologiya (lotincha surdus – kar va audio – eshityapman so'zlaridan) sohasidagi izlanishlar, unga yangi texnologiyalarning joriy etilishi, bu jarayonda turli yo'nalishdagi olimlar faoliyatining birlashuvi eshitishida chuqur muammosi bo'lgan shaxslar eshitish idrokini yaxshilashning yangi usuli – ko'pkanalli koxlear implantatsiya metodining ishlab chiqilishi imkonini berdi. Koxlear implantatsiya qilingan shaxslar bilan olib boriluvchi surdopedagogik ishlar zaruriy ahamiyatga ega.

Operatsiyadan so'ng surdopedagog, logopedlar tomonidan eshitish diqqatini rivojlantirish, ular nutqini o'stirish bo'yicha izchillik bilan amalga oshiriluvchi mashg'ulotlar bolalarning ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvlarining muhim omili hisoblanadi. Ya'ni bunday shaxslar eshitishni, nutqni faqatgina surdopedagog va yaqinlarining yordamida egallab borib, ijtimoiy hayotga erta uyg'unlashadilar. Shu sababli bunday operatsiyadan so'ng bolalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni, tashkil etilishini respublikamiz shart-sharoitlariga bog'liq holda ishlab chiqish surdopedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Turli yoshda eshitish muammolari mohiyatining turlicha namoyon bo'lishi surdopedagogikani uch mustaqil yo'nalishda: maktabgacha, maktab hamda kattalar surdopedagogikasi sifatida tadqiq qilishni talab qiladi. Bir necha asrlar davomida jahon surdopedagogik nazariya va amaliyoti eshitishida muammosi bo'lgan bolalar rivojlanish xususiyatlari hamda bilish imkoniyatlari, shuningdek, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi bilim va tajribalarni to'pladi (Arastu, J.Kardano, P.Ponse, X.Bonet, Sh.M.Epe, S.Geynike, L.S.Vigotskiy, S.A.Zikov, R.M.Boskis va b.).

Respublikamizda maxsus ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, jumladan, eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvlarining «kaliti» sanalgan nutqni rivojlantirish tizimini, maxsus ta'lim muassasasining ota-onalar bilan hamkorlikda olib boruvchi ish jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va ularni sifat jihatdan yuqoriga ko'tarishni ta'minlashda milliy pedagogikamiz asoschilarining qoldirgan boy ilmiy, adabiy va pedagogik merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Surdopedagogika uchun til va taffakur birligi haqidagi ta'limot bosh mezon hisoblanadi.

Til ijtimoiy hodisa bo'lib, u birgalikda mehnat qiluvchilarning muloqotga muhtojliklari ta'sirida yuzaga keldi. Til muloqot vositasi va fikrlash vositasidir. Til va taffakur birligining mohiyati fiziolog, psixolog, tilshunos, faylasuflar tadqiqotlari orqali tasdiqlangan.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

V.A.Suxomlinskiy fikricha, bolaning pedagogka ishonchi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro ishonchi „bu elementar va eng murakkab, eng aqlli tarbiyalash qoidasidir“. Pedagogning insoniyligi, bolalarga bo'lgan chuqur muhabbati talabchanlik va qat'iyatlik bilan birgalikda olib borilishi kerak.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ikki guruhga ajratiladi: kar va zaif eshituvchi. Har ikki toifada ham nutqiy rivojlanishda qiyinchiliklar kuzatiladi, bu esa ularning bilim olish jarayoniga ta'sir etadi. Inkluziv ta'limda ular uchun qulay sharoit yaratish, maxsus metodlardan foydalanish va o'qituvchi hamda ota-onalar hamkorligini yo'lga qo'yish muhimdir.

- Vizual metodlar:

Dars jarayonida rasm, jadval, grafik, piktogramma, multimedia vositalaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola ko'rish orqali ma'lumotni tezroq qabul qiladi.

- Subtitrlar va multimedia vositalari:

Video materiallarga subtitrlar qo'yish, interaktiv dasturlar, maxsus elektron darsliklardan foydalanish ularning axborotni o'zlashtirishiga yordam beradi.

- Isora (gest) va daktillik metodlari:

O'qituvchi zarurat bo'lganda ishoraviy til, qo'l harakatlari va daktillik (barmoq yozuvi)dan foydalanishi, shuningdek, oddiy va ravon talaffuz bilan gapirishi lozim.

- Kommunikativ metodlar:

Dialog asosida o'qitish, tengdoshlari bilan kichik guruhlarda ishlash, rol o'yinlar tashkil etish bolada muloqot ko'nikmasini rivojlantiradi.

- Differensial yondashuv:

Har bir bolaning eshitish darajasi, nutqiy rivojlanish holati va qiziqishlariga qarab individual mashg'ulotlarni tashkil qilish.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish:

Interaktiv doskalar, maxsus mobil ilovalar, kar va zaif eshituvchilar uchun yaratilgan ta'limiy dasturlar o'quvchi motivatsiyasini oshiradi.

- O'qituvchi va ota-onalar hamkorligi

Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining sabri, tushunishi va doimiy qo'llab-quvvatlashi juda muhim.

Ota-onalarga ham maxsus pedagogik maslahatlar berilishi, ularning uy sharoitida farzand bilan ishlashi nazorat qilinishi kerak. Inkluziv ta'limda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda vizual, kommunikativ, texnologik va individual metodlarning uyg'unligi eng yaxshi natijani beradi.

Bu metodlar nafaqat bilim olishni, balki bolalarning jamiyatga ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu orqali ular o'z tengdoshlari bilan birga o'qish, bilim olish va kelajakda kasb tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2021.
3. To'xtasinova S. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Агафонова И.Н. Сурдопедагогика. – Москва: Академия, 2017.
5. Колупаева А.А. Инклюзивное образование: реалии и перспективы. – Киев: Логос, 2018.
6. Marschark M., Spencer P. The Oxford Handbook of Deaf Studies, Language, and Education. – Oxford: Oxford University Press, 2016.
7. UNESCO. Inclusive education: The way of the future. – Paris: UNESCO, 2020.
8. Mamatqobilova, S. A. (2024). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA IMOM AT-TERMIZIY ASARLARIDAN FOYDALANISH ILMIY ASOSLARI. Research Focus, 3(11), 100-104.
9. Mamatqobilova, S. A. (2024). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA IMOM AT-TERMIZIY ASARLARIDAN FOYDALANISH ILMIY ASOSLARI. Research Focus, 3(11), 100-104.